



800000

**SAMARQAND VILOYATI  
KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA MUVOFIQLASHTIRISH  
HUDUDIY BOSHQARMASI BOSHLIG'INING  
BUYRUG'I**

2023 yil "3" fevral № 11

Samarqand sh.

**Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligining 2023-yil 30-yanvardagi  
10-sonli buyruq ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika ijro etuvchi hokimiyyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmonining 5-bandida nazarda tutilgan vazifalar ijrosini va Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish hamda 2023-yil 30-yanvardagi 10-sonli buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 30-yanvardagi 10-sonli buyrug'i ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi to'g'risida Muvaqqat nizom 1-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi to'g'risida Muvaqqat nizom 2-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi to'g'risida Muvaqqat nizom 3-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmalari to'g'risida Muvaqqat nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlangani inobatga olinsin.

**3. Boshqarmaning bosh yuriskonsulti (D.Zubaydullayev), kadrlar bo'yicha inspektor (J.Ismatova)larga:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmalari to'g'risida Muvaqqat nizom 4-ilovaga muvofiq Boshqarmaning vaqtinchalik Nizomini ishlab chiqish; (5-ilova)

lozim hollarda, mazkur nizomlarda ko'rsatilgan vazifa va funksiyalar ijrosini ta'minlash maqsadida tegishli lokal hujjatlarni ishlab chiqish vazifalari yuklatilsin.

4. Ijro bo'limi uchun mas'ul (A.Qo'shkorov) ushbu buyruqni o'rnatilgan tartibda ta'lif muassasalariga yetkazilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i v.v.b:

G.Norqulov



**Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Samarqand hududiy boshqarmasi to'g'risidagi  
MUVAQQAT NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'liga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14 son Farmoniga muvofiq Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining Samarqand viloyati boshqarmasi (keyingi o'rnlarda Boshqarma – deb yuritiladi) ning vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatları, mas'uliyatini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Nizom Boshqarma xodimlariga yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

2. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlariga, Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining (keyingi o'rnlarda – Vazirlik deb yuritiladi) qaror va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, xalq deputatlari viloyat Kengashi va viloyat hokimligi tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Boshqarmaning asosiy maqsadi:

hududni innovatsion rivojlantirish va ta'lif, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini tashkil qilishga qaratilgan samarali tadbirlarini amalga oshirish;

oliy ta'lif muassasalarining bakalavriatiga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan kirish test sinovlarining adolatli, xolis va shaffof o'tkazilishini tashkil etish;

hududda o'quv-tarbiya jarayonlari, professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish;

aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish hamda hokimliklar, iqtisodiyot tarmoqlari, davlat boshqaruvi organlari va ta'lif tashkilotlari kesimida xorijiy tillarni bilish reytingini yuritish;

hududda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'limenti yagona davlat siyosati talablari asosida tashkil etish, professional ta'limenti rivojlantirish, professional ta'lif muassasalarida o'quv-metodik, ma'naviy-ma'rifiy va moddiy-moliyaviy faoliyatni muvofiqlashtirish.

4. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarishda Samarqand viloyati hokimligining tegishli xizmatlari, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek boshqa korxona va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

**II. BOSHQARMANING VAZIFALARI**

5. Quyidagilar Boshqarmaning vazifalari hisoblanadi:

vazirlikka yuklatilgan asosiy vazifalar va funksiyalarning hududlarda ijrosini ta'minlash;

Vazirlikning markaziy apparati boshqarma va bo'limlarining vazifalarini Boshqarmaning tegishli bo'lim va mutaxassislari tomonidan taalluqli vazifa sifatida ijrosini ta'minlash;

idoraviy mansubligidan kat'iy nazar professional ta'lif muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish, o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshirish, kadrlar tayyorlash sifati, ta'lif mazmuni va darajasini ta'lif va professional standartlar talablariga mosligini ta'minlash;

professional ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish ahvolini o'rganadi, takomillashtirish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga uslubiy yordam ko'rsatish;

professional ta'limning yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorini ishlab chiqish va uni takomillashtirib borish bo'yicha takliflar tayyorlash;

ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalarini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich takomillashtirib borishda ish beruvchi korxonalar bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish;

professional ta'lim muassasalari o'quv-metodik ishlarini ularning idoraviy mansubligidan qat'iy nazar muvofiqlashtirish;

professional ta'lim tuzilmalari va bo'limlari ishlarini o'quv-metodik jihatdan muvofiqlashtirishda taklif va tavsiyalar tayyorlash;

o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanganligini tahlil qilish;

professional ta'lim muassasalarining darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-adabiyotlar, lug'atlar, ensiklopediyalar va badiiy adabiyotlar bo'lgan real ehtiyojini o'rganadi va buyurtma berish;

kasb-hunar maktablari o'quvchilarini umumita'lim fanlaridan darsliklar bilan ta'minlashni tashkil etish;

axborot-kutubxona markazlar ishlarini nazorat qilish hamda turli tanlovlardan tashkil etish;

davlat namunasidagi hujjatlarni berilishini hamda ularni elektron bazalarga kiritilishini nazorat qiladi;

professional ta'lim muassasalari bitiruvchilar uchun diplom va diplom ilovalariga hamda sertifikat blankalariga Vazirlikka buyurtmalar berish;

professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarga beriladigan diplom va diplom ilovalariga hamda sertifikat blankalariga individual QR-kod qo'yish tizimi orqali to'g'ri to'ldirilishi, tarqatilishini nazorat qilish;

o'quvchilik guvohnomalari va o'quv mashg'uloti jurnallariga buyurtmalarni shakllantiradi va ta'lim muassasalariga yetkazilishini tashkil qiladi;

professional ta'lim muassasalarida qisqa muddatli kurslarni tashkil etish hamda qisqa muddatli kurslarning o'quv dasturlarni ishlab chiqishni tashkil etish;

kasblar va mutaxassisliklar buyicha ta'lim dasturlarining bajarilishini nazorat qiladi, professional ta'lim muassasalariga ta'lim jarayonining tabakalashtirilgan dasturlari buyicha kadrlar tayyorlashda metodik raxbarlikni amalga oshiradi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, boshlang'ich professional, o'rta professional va o'rta maxsus profesional ta'lim muassasalari o'quv-metodik ishlarini rivojlantirish;

professional ta'limini rivojlantirish buyicha kengashlar, simpoziumlar, seminarlar, o'kuv-metodik konferensiylar, tanlovlardan boshqa tadbirdirlarni tashkil etish;

o'rta maxsus va professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning dublikatini berishda ta'lim muassasalari tomonidan o'z vaqtida kiritilishini nazorat qilish;

nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda professional ta'lim berishning muqobil shakllarini rivojlantirish;

iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda «Hayot davomida ta'lim olish» prinsipi asosida shaxslarning ta'lim olishiga ko'maklashish;

professional ta'lim sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkil etish;

professional ta'lim muassasalarini tadbirdorlik sub'ekti sifatida faoliyat olib borishiga tashkiliy va huquqiy yordam ko'rsatish;

professional ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshirish, kadrlar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuni va darajasini ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash;

mehnat bozoridagi ehtiyojlar asosida kasbiy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bo'yicha buyurtmalar portfelini shakllantirish;

mehnat bozori ehtiyojlar, o'quvchilarning qiziqishlari hamda ish beruvchilarning buyurtmalaridan kelib chiqib, professional ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasi parametrlariga takliflarni shakllantirish;

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini amaliyotlarini ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarda tashkil etishning kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda bu borada ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

professional ta'limda ilg'or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda o'qitish uslublarini joriy etish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda ilg'or xalqaro tajribalardan foydalananishni tashkil etish;

o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish ustaxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, sport-sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

professional ta'lif muassasalarida belgilangan tartibda ichki audit va moliyaviy nazoratni tashkil etish hamda amalga oshirish;

ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlarning amalga oshirilishi yuzasidan monitoring yuritish;

loyihalar (ishlanmalar)ni tashabbus qilish (yaratish) va amalga oshirishda ko'maklashishi, ilmiy tashkilotlar hamda korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha (ishlanma) lar natijalarining hamda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarining tegishli tarmoqlarga joriy etilishini muvofiqlashtirish;

hududlardagi ilm-fan va innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari huzuridagi Innovatsion faoliyat va texnologiyalar transferi markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

viloyatda innovatsion infratuzilmalar (innovatsion markazlar, transfer markazlari, innovatsion tadbirkorlik sub'ektlari, biznes akselerator, biznes-inkubatorlar, texnoparklar va boshqalar) ni tashkil etish va faoliyatini yuritishga ko'maklashish;

viloyat iqtisodiyoti muammolari yechimiga qaratilgan fundamental, ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar mavzularini shakllantirish asosida hududlar ilmiy salohiyatini takomillashtirish dasturlarini ishlab chiqish va ular asosida mavzularni tanlovlarga taqdim etish;

hududdagi xo'jalik birlashmalari hamda ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan yirik korxonalar rahbarlarining innovatsiyalarni joriy etishga mas'ul o'rribbosarlari hamda innovatsion markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

innovatsion g'oyalar va ishlanmalarning ko'rgazma va yarmarkalarini tashkil qilish, ilmiy-amaliy seminarlar va anjumanlar, shuningdek hudud iqtisodiyotidagi dolzarb mavzularda qisqa o'quv kurslarini tashkil qilish;

hududning innovatsion raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan samarali tadbirlar belgilash va amalga oshirish;

viloyatni innovatsion rivojlanishi masalalarida qonunchilikda belgilangan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

hudud iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida, shu jumladan qishloq xo'jaligi, ta'lif, sog'liqni saqlash va sanoatda innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish;

hududdagi erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish;

hududning innovatsion faoliyati bilan bog'liq bo'lgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining hududni innovatsion rivojlantirishdagi o'rni va ta'sirchanligini baholash;

hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar sifatida innovatsion infratuzilmasini shakllantirish tadbirlarini belgilash;

viloyatda ilmiy-texnik va innovatsion siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning ilmiy-texnikaviy dasturlarini viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlashni tashkil qilish;

innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha oliy ta'lif muassasalari, ilmiy tadqiqot muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirishda ishtirok etish;

joylarda test sinovlarini belgilangan tartib asosida sifatli tashkil etish va o'tkazish hamda uning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

ta'lif faoliyatining sifatini oshirishda ta'lif muassasalariga ko'mak berish va nazorat qilish;

ta'lif muassasalarini attestatsiyadan o'tkazishda vakolatli organlar va tashkilotlarning hamkorligini tashkil qilish;

oliy ta'lif muassasalarining ta'lif sifatini nazorat qilish bo'yicha bo'limlari o'tkazadigan ichki attestatsiya jarayonini hamda sohadagi kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha ta'lif muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish masalalarini muvofiqlashtirish;

hududda uzlusiz ta'lif tizimida ta'lif sifatini va kadrlar tayyorlash sifati nazorati bo'yicha monitoring yuritish;

aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingen dastur va darsliklari ta'lifning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nigmalarini rivojlantirish;

hududda tarmoqlar va ta'lif muassasalarining xorijiy tillarni o'zlashtirgan mutaxassislarga ehtiyojlarini tahlil qilish natijalari asosida talab yuqori bo'lgan xorijiy tillarni o'qitishni tashkillashtirish;

davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat ta'lif muassasalarining xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

xorijiy va mahalliy hamkorlar bilan aloqalar o'rnatib, ularning moliyaviy, tashkiliy va uslubiy ko'magini mamlakatda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga jaib qilishni tashkil etish;

hududda mahalliy hokimiyat organlari va idoralar bilan birgalikda davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatini xorijiy tillarda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi uslubiyotlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish;

hududda talab yuqori bo'lgan kamida o'nta xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash;

hududda xorijiy tillar o'qituvchilari uchun malaka talablari va baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularga malaka toifasini berish jarayonini ochiqlik tamoyili asosida tashkil etish.

### III. BOSHQARMANING FUNKSIYALARI

6. Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Boshqarma va uning rahbariyati faoliyatini tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlaydi;

professional ta'lif muassasalari tomonidan respublika qonunchiligi hujjatlari, Vazirlikning buyruqlari bajarilishi muntazam nazorat qilinishini ta'minlaydi;

professional ta'lif muassasalari tomonidan kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida qayta ishlanishini, ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etadi;

professional ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish ahvolini o'rganadi, takomillashtirish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga uslubiy yordam ko'rsatadi;

professional ta'lifning yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorini ishlab chiqish va uni takomillashtirib borish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

ta'lif standartlari, malaka talablari, o'quv rejalarini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich takomillashtirib borishda ish beruvchi korxonalar bilan hamkorlik ishlarini tashkil etadi;

professional ta'lif muassasalari o'quv-metodik ishlarini ularning idoraviy mansubligidan qat'iy nazar muvofiqlashtiradi;

professional ta'lif tuzilmalari va bo'limlari ishlarini o'quv-metodik jihatdan muvofiqlashtirishda taklif va tavsiyalar tayyorlaydi;

o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanganligini tahlil qiladi;

professional ta'lif muassasalarining darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-adabiyotlar, lug'atlar, ensiklopediyalar va badiiy adabiyotlar bo'lgan real ehtiyojini o'rganadi va buyurtma beradi;

kasb-hunar maktablari o'quvchilarini umumta'lim fanlaridan darsliklar bilan ta'minlashni tashkil etadi;

axborot-kutubxona markazlar ishlarini nazorat qiladi hamda turli tanlovlardan tashkil etadi;

davlat namunasidagi hujjatlarni berilishini hamda ularni elektron bazalarga kiritilishini nazorat qiladi;

professional ta'lif muassasalari bitiruvchilari uchun diplom va diplom ilovalariga hamda sertifikat blankalariga Vazirlikka buyurtmalar beradi;

professional ta'lif muassasalari bitiruvchilarga beriladigan diplom va diplom ilovalariga hamda sertifikat blankalariga individual QR-kod qo'yish tizimi orqali to'g'ri to'ldirilishi, tarqatilishini nazorat qiladi;

o'quvchilik guvohnomalari va o'quv mashg'uloti jurnallariga buyurtmalarni shakllantiradi va ta'lif muassasalariga yetkazilishini tashkil qiladi;

professional ta'lif muassasalarida qisqa muddatli kurslarni tashkil etish hamda qisqa muddatli kurslarning o'quv dasturlarni ishlab chiqishni tashkil etadi;

kasblar va mutaxassisliklar buyicha ta'lim dasturlarining bajarilishini nazorat qiladi, professional ta'lim muassasalariga ta'lim jarayonining tabakalashtirilgan dasturlari buyicha kadrlar tayyorlashda metodik raxbarlikni amalga oshiradi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, boshlang'ich professional, o'rta professional va o'rta maxsus profesional ta'lim muassasalarini o'quv-metodik ishlarini rivojlantiradi;

professional ta'limini rivojlantirish buyicha kengashlar, simpoziumlar, seminarlar, o'kuv-metodik konferensiylar, tanlovlardan boshqa tadbirlarni tashkil etish;

o'rta maxsus va professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning dublikatini berishda ta'lim muassasalarini tomonidan o'z vaqtida kiritilishini nazorat qiladi;

nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslarni qo'llab-quvvatlaydi hamda professional ta'lim muassasalarida ta'lim berishning muqobil shakllarini rivojlantiradi;

professional ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartini va mutaxassisliklar (kasblar) ta'lim standartlarini bajarish monitoringini tashkil etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashni tashkil etadi;

professional ta'lim muassasalarini tomonidan qonunchilik hujjatlari, me'yoriy hujjatlar vazirining buyruqlari va boshqa yo'riqnomalarining bajarilishini muntazam nazorat kilinishini ta'minlaydi;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali o'quvchilar va o'qituvchilarining jaxon ta'lim resurslari, adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi;

professional ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish borasida professional ta'lim muassasalarini direktorlari kengashlari va oliy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

davlat va nodavlat professional ta'lim muassasalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziyalash, attestatsiya va akkreditatsiya qilish ishlarida o'z vakolati doirasida ishtiroy etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq professional ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini rejalashtiradi, tashkil etadi hamda pedagog kadrlari attestatsiyasida ishtiroy etadi;

vakolati doirasida tegishli tashkiliy, kadrlar, moliyaviy, ishlab chiqarish-xo'jalik va boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

viloyat iqtisodiyotining tarmoqlarini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish dasturlarini innovatsion rivojlanish tadbirlari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini inobatga olgan holda shakllantirishga ko'maklashadi;

hudud iqtisodiyotining ustuvor sohalarini rivojlantirishga amaliy innovatsion tadbirlarni joriy qilish orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadi;

hududdagi ilmiy salohiyat asosida iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni tashkil etadi;

ijtimoiy sohani jadal rivojlantirishga va uning yo'nalishlari va tuzilmasini tubdan takomillashtirishga innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishni yo'lga qo'yish hisobiga uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini oshirishga ko'maklashadi;

kxononalarni mahalliy xom ashyni qayta ishslash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, kxononalarda ilmiy markazlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

mayjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi «Aqli qishloq xo'jaligi» konsepsiyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish takliflarini ishlab chiqadi;

ta'lim muassasalarini attestatsiyasini sifatli va samarali o'tkazilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talaba va tinglovchilarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga muvofiqligini o'rganishni tashkil etishda ishtiroy etish va nazorat qilish;

ta'lim muassasalarining attestatsiyasiga jalb qilinadigan ekspertlar nomzodlari bo'yicha takliflar kiritish;

hududlardagi maktabgacha va umumta'lim muassasalarini attestatsiyasi va akkreditatsiyasi bo'yicha takliflarni vazirlikka taqdim etish;

hududdagi ta'lim muassasalarida ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini o'rganish maqsadida sotsiologik so'rovnomalarni o'tkazish;

hududda nodavlat ta'lim muassasalarini ta'sis etish istagidagi tadbirkorlarga har tomonlama metodik ko'mak ko'rsatish;

fuqarolarga nostrifikatsiya va apostil masalalari bo'yicha maslahatlar berish va metodik yordam ko'rsatish.

ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovi orqali tanlab olish tartiblarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

bino va inshootlarni test sinovlarini o'tkazish uchun jihozlash borasida qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

test sinovi ishtirokchilari uchun test sinovini o'tkazish tartibi bo'yicha amaliy seminarlar tashkil qilish;

test topshiruvchilar uchun test sinovi tartibi bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

test sinovlarining belgilangan tartib va qoidalar asosida tashkil etilishi va o'tkazilishini ta'minlash;

test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

test sinovlari nazoratini amalga oshiruvchi mas'ul shaxslarning bilim, ko'nikma va malakasini shakllantiruvchi amaliy seminarlar tashkil qilish.

hududda xorijiy tillarni o'qitish sohasida «bog'cha-maktab-oliy ta'lim tashkiloti-korxona» tamoyilidagi uzlusiz ta'lim zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo'lgan tilni o'rganish bo'yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish;

xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratilishini tashkil etish;

davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nالishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko'maklashish;

hududda tarmoqlar, davlat organlari va ta'lim tashkilotlari kesimida xorijiy tillarni bilish reytingini yuritish, xorijiy tillarni o'rganishni yanada ommalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Boshqarma qonun hujjalari muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### III. HUDUDIY BOSHQARMANING HUQUQI VA MAJBURIYATLARI

7. Hududiy boshqarma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalardan, mahalliy davlat hokimiyyati organlaridan o'z vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish uchun zarur ma'lumot va axborotni belgilangan tartibda so'rash;

professional ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining ko'rib chiqishi uchun takliflar kiritish.

xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-tadqiqot dasturlarida ishtirok etish, ilmiy investitsiyalarni jaib etish, ta'lim tizimiga xalqaro grantlar kiritilishini ta'minlash;

kasblar va mutaxassisliklarning ta'lim dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari mazmunini takomillashtirish hamda ilg'or xorijiy tajriba asosida tavsiyalar ishlab chiqish;

rahbar xodimlarning o'z lavozimlariga loyiqligi masalalari yuzasidan Vazirlikka, tasarrufida professional ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar va idoralarga takliflar tayyorlash;

xorijiy investitsiyalar hisobiga sotib olinadigan o'quv-laboratoriya va ustaxona jihozlarining qabul qilingan ta'lim standartlariga mos kelishi, ishlatilishi va saqlanishi yuzasidan takliflar berish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun hududdagi uzlusiz ta'lim tizimi muassasalaridan zarur ma'lumotlar va materiallarni olish;

vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha zarur statistik ma'lumotlarni bepul tartibda statistik organlaridan so'rabs olish;

hududda joylashgan oliy ta'lif muassasalari tarkibidagi Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'limlarining faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirib borish;

hududda tashkil etiladigan tekshiruv va o'rganishlarga uzlusiz ta'lif tizimi vakillarini ularning rahbariyati bilan kelishilgan holda jalb qilish;

hududlardagi aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish;

o'qituvchilarda zamonaviy, innovatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish;

davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarining malakasini oshirishda ko'maklashish;

fuqarolarning ariza'lari va murojaatlari ko'ra, zarur o'rganishlarni tashkil etish va natijalari yuzasidan Vazirlikka o'matilgan tartibda ma'lumot kiritish;

vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan zarur axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini belgilangan tartibda ishlab chiqishda ishtirot etish, vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha idoralararo tusdagi xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzishda ishtirot etish;

shartnoma bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga ilmiy-metodik, axborot konsalting hamda namunaviy test topshiriqlari asosida diagnostik test sinovlari o'tkazish xizmatlarini ko'rsatish;

o'z vakolatlari doirasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihamonini tayyorlash;

o'z vakolatlari doirasida konferensiylar, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar tashkillashtirishda ishtirot etish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirot etish;

o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish;

vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha idoralararo tusdagi xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzishda ishtirot etish;

Boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9. Hududiy boshqarmaning majburiyatlar quyidagilardan iborat:

Vazirlikka va boshqa davlat boshqaruvi organlariga, hokimliklarga taqdim qilinayotgan ma'lumotlarni haqqoniyligiga javob beradi;

xizmat vazifalarini vijdonan bajaradi va o'z sha'niga dog' tushirmaydi;

ijro intizomiga, o'quv va mehnat intizomiga, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalarga rioya etadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mas'ul bo'ladi;

vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan zarur axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish;

shartnoma bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga ilmiy-metodik, axborot konsalting hamda namunaviy test topshiriqlari asosida diagnostik test sinovlari o'tkazish xizmatlarini ko'rsatish;

o'z vakolatlari doirasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihamonini tayyorlash;

o'z vakolatlari doirasida konferensiylar, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar tashkillashtirishda ishtirot etish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirot etish;

o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha metodik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish;

o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va samarali bajarilishi;

professional ta'lif bo'yicha vazirlikka yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi;

professional ta'lif muassasalarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlaydi.

### **III. BOSHQARMA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**

10. Boshqarma ishlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, ushu Nizom va Qoraqalpog'siston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyat hokimligining topshiriqlariga muvofiq mutaxassislarining ish rejali asosida tashkil etiladi.

11. Hududiy boshqarma

yuridik shaxs maqomiga ega emas;

Vazirlik tomonidan tasdiqlangan blanka shakli hamda muhrga ega;

Vazirlik tomonidan tasdiqlangan tuzilmaga va belgilangan xodimlardan iborat;

12. Hududiy boshqarmaga Vazirlik buyrug'i asosida lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi. Hududiy boshqarma boshlig'i bo'limgan hollarda (ta'til, betoblik, xizmat safari) uning vakolatlari Vazirlikning Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bilan kelishuvga ko'ra boshqarma boshlig'inining o'rnbosari zimmasiga yuklatiladi.

13. Hududiy boshqarma boshlig'i, o'rnbosari va xodimlari Vazirlik buyrug'i asosida lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Hududiy boshqarma boshliqlari Vazir, vazirning o'rnbosarlari hamda Hududiy boshqarmalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'iga muntazam hisobot beradi.

14. Vazirlikning Hududiy boshqarmalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi:

hududiy boshqarmaga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi ustidan muntazam monitoring olib boradi hamda hududiy boshqarma faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi;

tarkibiy tuzilmalarning bevosita faoliyatiga oid masalalar bo'yicha hududiy boshqarmalarga so'rovlar yuboradi va ularning ijro etilishini nazorat qiladi;

hududiy boshqarma faoliyati bo'yicha o'rganishlar o'tkazadi, faoliyati amaliyotini umumlashtiradi va ularni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

hududiy boshqarma faoliyati natijalari bo'yicha hisobot, axborot materiallarini, statistik va boshqa ma'lumotlarni o'rganishni tashkil etadi;

hududiy boshqarma ish rejalarini tahlil qiladi, ular faoliyatini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda hududiy boshqarma ishtirokini tashkil etadi, ulardan qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni qabul qiladi.

15. Hududiy boshqarmaga ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida amaliy-metodik ish tajribasiga ega bo'lgan malakali mutaxassislar, shuningdek, ilmiy-pedagogik stajga ega bo'lgan shaxslar tarkibidan malakaviy talablarga muvofiq belgilangan tartibda ishga qabul qilinadi.

16. Monitoring va baholash natijalariga ko'ra hududiy boshqarmaning alohida o'rnak ko'rsatgan rahbar va xodimlarini rag'batlantirish yoki yo'l qo'yan jiddiy kamchiliklari uchun egallab turgan lavozimidan ozod etilishigacha bo'lgan choralar ko'rildi.

17. Boshqarma tarkibiy bo'limlarining professional ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligi boshqarmalarning rahbarlari tomonidan ta'minlanadi.

Boshqarma tarkibiy boshqarmalarining professional ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish doirasida:

topshiriqlarni professional ta'lim muassasalariga yetkazadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

professional ta'lim muassasalariga bevosita faoliyati masalalari bo'yicha so'rovlar yuboradi hamda ularning ijro etilishini nazorat qiladi;

professional ta'lim muassasalarining faoliyat yuritish amaliyotini tekshiradi va o'rganadi, umumlashtiradi, uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

professional ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va faoliyati natijalari to'g'risida hisobot va axborot materiallari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar o'rganishini tashkil etadi;

professional ta'lim muassasalarining ish rejalarini tahlil qiladi, faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar ko'radi;

professional ta'lim muassasalaridan tushgan takliflarni ko'rib chiqadi.

#### IV. HUUDUYI BOSHQARMA XODIMLARINING MALAKA TALABLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI

18. Boshqarma boshlig‘ining:

asosiy funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

Boshqarma faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi – boshqarma zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishiga mas’ul hisoblanadi;

hududni innovatsion rivojlanishining o‘rta va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan konsepsiylar va amaliy chora-tadbirlari dasturlarini ishlab chiqishni tashkil qiladi;

taqdim etilgan takliflar va hujjatlar loyihamini ko‘rib chiqishda davlat prinsiplariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlaydi, ularning sifaqli ishlab chiqilishini tashkil qiladi va tayyorlangan hujjatlar loyihamiga viza qo‘yadi. Tegishli hujjatlar qabul qilingandan keyin ularning bajarilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta’minlaydi;

tasdiqlangan tuzilmaga va shtatlar ro‘yxatiga muvofiq lavozimga tavsiya etilayotgan nomzodlar, mutaxassislarning kasbiy darajasini va ish malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish va ularga jazo choralar ko‘rish bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va vazirlikka kiritadi;

mutaxassislar o‘rtasida vazifalar taqsimotini, shuningdek boshqarmaning yillik/yarim yillik ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun vazirlikka kiritadi, mutaxassislarning ish rejalarini tasdiqlaydi;

ish yuritishni belgilangan tartibda olib borilishini ta’minlaydi, Boshqarmadan chiquvchi xatlar va murojaatlarni imzolaydi;

mazkur Nizomda belgilab berilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishini tashkil etadi;

ijro intizomini mustahkamlash, shuningdek boshqarma xodimlarining topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishi bo‘yicha shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha amaliy choralarini belgilaydi;

joylarda Vazirlik faoliyati doirasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha davlat boshqaruvi va hokimlik organlari bilan hamkorlik qiladi;

Boshqarmaga xodimlarni tanlash va tayinlash borasida Vazirlikka takliflar kiritadi, ularning samarali faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratadi, Boshqarmada xodimlar zahirasini yaratadi;

korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish choralarini belgilaydi, shuningdek ularning kelib chiqishi sabablarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

xodimlar faoliyati natijasi va samaradorligini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qiladi, ularning shaxsiy hisobotlarini tinglaydi va yakuni bo‘yicha zarur choralarini ko‘radi;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqishning samardorligini ta’minlaydi, yakka tartibdag‘i qabullarni, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar bilan sayyor qabullarni tizimli o‘tkazib boradi;

xodimlar lavozim ish haqiga ustama haq to‘lash, mukofot va moddiy yordam pullarini berish hamda rag‘batlantirish, xodimlarga intizomiy choralar qo‘llash, shuningdek ularni davlat va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash yuzasidan Vazirlikka taqdimnomalar kiritadi;

davlat siri yoki maxfiy hisoblangan, qonun bilan qo‘riqlanadigan ma’lumotlar himoyasini ta’minlaydi;

professional ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni tashkil qiladi;

zaruratga ko‘ra, xodimlarning belgilangan cheklangan umumiyl soni doirasida Boshqarma shtatlar jadvaliga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha Vazirlikka taklif kiritadi;

barcha xodimlar uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar qabul qiladi va topshiriklar beradi.

lavozimiga quyidagi malaka talablari qo‘yiladi:

oliy ma’lumotli, ilmiy darajaga ega yoki xorijiy til sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik va boshqaruvi qobiliyati jihatidan) ega bo‘lishi;

ta’lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi;

xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish jarayonida zamонави pedagogik usullarni qo‘llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo‘lishi;

ish faoliyatida zamонави axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

19. Xorijiy tillarni ommalashtirish bo'yicha bosh mutaxassisning:

asosiy funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, karor va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Vazirlik buyruq va ko'rsatmalari hamda Boshqarma boshlig'inining topshiriqlari asosida tashkil etish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ish yuritish va ijro nazoratini ta'minlash;

Boshqarma faoliyatiga oid me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chikish; respublikada va xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga oid yangiliklarni doimiy o'rganib borish va ularni tadbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chikish;

Vazirlikning topshirig'iga binoan Hududiy boshqarma boshlig'i ruxsati bilan xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga oid ma'lumotlarni toplashda, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bilan bog'lik jarayonlarda ishtirok etish.

lavozimiga kuyidagi malaka talablari kuyiladi:

oliy ma'lumotli, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik jihatidan) ega bo'lishi;

xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish soxasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish jarayonida zamonaviy usullarni qo'llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo'lishi;

o'quv, ilmiy-tadkikot va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarning mazmun-moxiyatini tushunishi, yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlashga qo'yilgan talablarni bilishi;

ish jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

20. Ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis innovatsiyalar bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, hududda ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirish strategiyasini belgilash masalalarida mas'ul hisoblanadi va uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

hudud, shaharlar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi tendensiyalarni atroficha tahlil qilish asosida, muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasida hamda tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni inobatga olgan holda innovatsion rivojlanish usul va tadbirlarini amaliy qo'llashni ta'minlaydi;

shahar va tumanlarda innovatsiya faoliyati bilan bog'liq ishlarining holati va natijadorligini doimiy ravishda o'rganadi hamda ular samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

hududdagi korxona va tashkilotlarida innovatsion faoliyat samaradorligini mavjud indikatorlar asosida o'rganadi va holatini baholaydi hamda sohani innovatsion rivojlantirish bo'yicha vakolatli tashkilot, korxona va xo'jalik birlashmalari takliflarini to'playdi va umumlashtiradi;

shaharlar va tumanlar iqtisodiyotida, eng avvalo, sanoat va qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgartirishlarni zamonaviy innovatsion texnologiyalar hamda usul va uslublar asosida amalga oshirilishini ta'minlaydi;

innovatsion tadbirdorlikni jadal rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilishda hududiy boshqaruva organlarining mas'uliyatini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qiladi;

hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq barcha dasturlarda innovatsion uslub va texnologiyalarni joriy qilishni nazarda tutadi. Shu asosda hududiy investitsiya dasturlari, ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash, texnik yangilash va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlari, mahalliylashtirish dasturi, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash dasturlari, yangi ish o'rinnari tashkil etish va bandlikni ta'minlash dasturlari, shuningdek boshqa hududiy dasturlarda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish ishlarining monitoringini olib boradi.

Ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis o'z vazifalari doirasida boshqa funksiyalarni amalgala oshirishi mumkin.

21. Innovatsion loyihamalar va tijoratlashtirish masalalari bo'yicha bosh mutaxassis hududda fundamental, ilmiy-amaliy va innovatsion loyihamalar va dasturlarni ishlab chiqish, ularni ekspertizadan o'tkazish va belgilangan

tartibda moliyalashtirish hamda ular ijrosini monitoring qilish ishlariga mas'ul hisoblanadi va uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

hududiy ilmiy dasturlarni ishlab chiqishni, tasdiqlashni hamda samarali amalga oshirishni tashkil etadi;

innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishni tashkil etadi;

innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning yarmarka-ko'rgazmalarini tashkil etadi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini targ'ib qilish va amaliyotda foydalanish mexanizmlarini shakllantiradi;

ilmiy-texnikaviy loyihalar, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning davlat ekspertizasini tashkil qiladi;

baholash va o'rganish natijalari asosida ilg'or texnologiyalarni birinchi darajada joriy etishni talab qiladigan tegishli tarmoq va sohalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

innovatsion jarayonni amalga oshirishning eng maqbul variantini tizimlashtiradi, aniq vaziyatlar uchun optimal boshqaruq qarorlarini ishlab chiqadi;

hudud iqtisodiyoti uchun dolzarb hisoblangan ishlanmalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalar natijalari bo'yicha litsenziya kelishuvi asosida hamda ilmiy ishlanmalar natijalarini amaliyotga qo'llash bo'yicha loyha tashabbuskorlari va ishlab chiqarish vakillarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qiladi;

moliyalashtirilgan loyihalarning samarali va maqsadli bajarilishi yuzasidan monitoring yuritadi.

Innovatsion loyihalar va tijoratlashtirish masalalari bo'yicha bosh mutaxassis o'z vazifalari doirasida boshqa funksiyalarni amalga oshirishi mumkin.

## 22. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha yetakchi mutaxassis:

erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, sanoat zonalari va boshqa innovatsion infratuzilmalar tashkil qilish va faoliyat yuritayotganlarining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va amalga oshirishni tashkil qiladi;

viloyatning innovatsion salohiyatini oshirishga ko'maklashish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ularning ijrosini ta'minlaydi;

innovatsiya infratuzilmalari hamda resurs sarfi yuqori bo'lgan tarmoqlarga investitsiyalarni jalg qilish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

atrof-muhitning ifloslanishi darajasini kamaytiradigan ekologik toza texnologiyalarni qo'llagan holda ishlab chiqarish qobiliyatini oshirishni nazarda tutuvchi «yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini joriy etishga ko'maklashadi.

Yetakchi mutaxassis, shuningdek:

boshqarmada hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishi ishlariga hamda qabul qilingan hujjatlar bajarilishining nazorati uchun mas'ul hisoblanadi;

boshqa boshqaruq organlari, tashkilotlar, korxona va xo'jalik birlashmalari tomonidan taqdim etilgan takliflar va hujjatlarni boshqarma vazifalari doirasida tahlil qiladi; zaruratga ko'ra, ular bo'yicha tahliliy materiallar va ekspert takliflarini tayyorlaydi va Boshqarma boshlig'iga kiritadi;

Boshqarma vazifalari doirasida qabul qilingan hujjatlar bajarilishining nazorat rejasini yoki amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlash uchun Boshqarma boshlig'iga kiritadi;

mazkur Nizomga va vazifalarga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

23. Boshqarma tomonidan vazifa va funksiyalarning bajarilishi vazirlik tomonidan baholanadi.

24. Boshqarmani saqlash harajatlari va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

25. Mazkur namunaviy Nizomni bekor qilish yoki unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritadi;

2) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillar chuqur o'zlashtirgan malakali kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifati ta'minlash sohasida:

oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlaydi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yich o'qish davomiyligi muddatlarini belgilaydi;

ta'lim oluvchilarning akademik mobilligini tashkil etish jarayonlarini muvofiqlashtiradi;

o'rta maxsus ta'lim yo'nalishlari, professional ta'limning kasblar va mutaxassisliklar, oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, shuningdek, bilim sohalari va ta'lim sohalari ro'yxatini belgilaydi;

o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasarrufida ushbu ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning taklifi asosida Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi;

davlat namunasidagi oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tayyorlash va hisobini yuritish tartibini ishlab chiqadi;

3) idoraviy mansubligidan qat'i nazar barcha oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshirish, mutaxassislar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuni va darajasini davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga mosligini ta'minlash sohasida:

tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qiladi;

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq davlat oliy ta'lim muassasalarida istiqbolli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklарini belgilash yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini boshqarish, uslubiy ta'minlash, me'yorlash, ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, pedagog kadrlarning samarali faoliyati va o'quv jarayonini tashkil etish hamda rag'batlantirishga oid ishlarni muvofiqlashtiradi;

ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash tartibini belgilaydi;

4) ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va o'qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim dasturlarini (o'quv rejalari va fan dasturlarini) takomillashtirish, o'qitishning zamонавиy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda ta'lim sifatini ta'minlash sohasida: